

Shahar hokimi “Bog‘zor” mahallasidagi aholining ijtimoiy ahvoli, mavjud imkoniyatlar va muammolarini o‘rgandi



Shahar hokimi “Bog‘zor” mahallasidagi aholining ijtimoiy ahvoli, mavjud imkoniyatlar va muammolarini o‘rgandi


Bugun erta tongdan Termiz shahar hokimi O‘ktam To‘rayev boshchiligida, tegishli hokim o‘rinbosari hamda korxon va tashkilot rahbarlari “Bog‘zor” mahallasida yig‘ilishdi. Yig‘ilishda, shahar rahbari tomonidan barcha mutasaddilarga o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha mahalladagi mavjud kamchilik va muammolarni takror o‘rganib chiqib, ularni bartaraf etish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Shundan so‘ng mas‘ullar birgalikda mahalla hududi va aholi yashash joylari holati bilan tanishishdi.


Jarayonda mahallaning ichki ko‘chalari yoqasida joylashgan aholi tomorqasidagi dov-

daraxtlarga shakl berish va oqlash ishlari bajarilmaganligi va yovvoyi o't-o'lanlar bilan qoplanganligi – mahalla husniga dog' tushirayotganligi ko'rsatilib, odamlarga uy-joyiga e'tiborli bo'lish hissini yana-da kuchaytirish hamda toza saqlash uchun mutasaddilarga mas'uliyatini oshirish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli ko'rsatmalar berildi .

Shuningdek, mahallada istiqomat qiluvchi fuqaro Abdusamad Kattayev bilan

Image not found or type unknown
Ular ushbu, yashash xonadonining bo'sh turgan yerto'la qismidan "Ajoyib o'rnning bandini ta'minlash va sog'lomlashtirish markazi"ni tashkil etish bo'yida kelishib oldi va imtiyozli kredit ajratilishi belgilandi. O'rganish ishlari barcha mahallalarda davom etadi.








Image not found or type unknown

